

BUXORO VILOYATIDA KAMBAG‘ALLIKNING OLDINI OLISHDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI SAMARALI ISHLAB CHIQUARISH

S.Islomova

Buxoro Texnika universiteti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası stajyor o‘qituvchisi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158 sonli “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmonida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sinh suratlarini saqlash, milliy iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada o‘zgarishlarini chuqurlashtirish, yetakchi bo‘lgan tarmoqlarni modernizatsiyalashtirish va diversifikatsiyalashtirish hisobiga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi iste‘mol bozorlarida raqobatdoshlik darajalarini rivojlantirish belgilangan.

Ana shu farmonga asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, diversifikatsiyalashtirish asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini innovatsion tarzda tashkil etish asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlarini va ishlab chiqarish faoliyatlari bilan shug‘ullanayotgan sub’ektlarni barqaror va samarali rivojlantirib borish belgilangan.

Odatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini hozirgi bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan holda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda, uni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy qismlarini tabiiy-iqlim sharoitlarini ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, mehnat resurslarini shakllantirish, samarali ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish, moliyaviy mablag‘lardan, investitsiya va innovatsiya mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganib borish zarur.

2024 yil boshida Buxoro viloyatida 238 ming aholining daromadi past bo‘lib, kambag‘allik darajasi 11,8 foizni tashkil etgan.

Xususan, yil boshida 54 mingdan ziyod kambag‘al oila ro‘yxatga olingan bo‘lib, shu davrga qadar amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida ularning 26 mingga yaqinini kambag‘allik darajasidan chiqarishga erishildi.

Aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash mutasaddi tashkilotlar, “mahalla yettiliklari”, bank tizimi xodimlari, tadbirkor va fermerlar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Negaki, kishi qachon mehnatga band bo‘lib, barqaror ish faoliyati bilan shug‘ullansa, oilasi farovon bo‘lsa, o‘shanda o‘ziga nisbatan ishonchi ortadi, davlatimizning taraqqiy

etishiga umid bilan qaraydi, jamiyatimizdagi kechayotgan jarayonlarga, keng ko‘lamli islohotlarga daxldorlik hissini tuyadi.

Qolaversa, bandligi ortidan kelgan daromadiga oilasini boqadi, turmushi farovon bo‘ladi, orzu-havaslariga erishadi.

Buxoro viloyatda 209395 ta yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha ishlab chiqilgan va xalq deputatlari viloyat, tuman va shaharlar kengashlari sessiyalarida tasdiqlangan rejalarning ijrosini ta‘minlash dolzarb ahamiyatga ega eanligini ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga, viloyatimizdagi 544 ta mahallaning drayveridan kelib chiqib, shakllantirilgan 1 300 ga yaqin loyihalarni ishga tushirish, ishlatilmasdan turgan 3,2 mln. gektar yer maydonidan samarali foydalanishni ta‘minlash, ip-kalavani qayta ishlashni 57 foizdan 85 foizga olib chiqish, eksportni hozirgi 140 mln.dan 570 mln. dollarga oshirish ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибадорлигини ошириш. *Интернаука*, (22-3), 88-90.
2. Boboev, A. C., & Akramova, O. Q. (2023). Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishda korxonalarning o‘rni va ahamiyati. *Science and Education*, 4(2), 1537-1542.
3. Olimovich, D. I., Baxtiyorovich, T. M., & Chorievich, B. A. (2020). Description of Technological Processes in Restaurant Services. *JournalNX*, 6(05), 248-252.
4. Chorievich, B. A. (2022). Issues of formation of entrepreneurial skills in graduates of higher education. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 183-187.
5. Toshev, F. Z., & Qurbonova, X. B. (2024). Iqlim O‘zgarishining Atrof Muhitga Ta’siri. *Tanqidiy Nazar, Tahliliy Tafakkur Va Innovatsion G ‘Oyalar*, 1(1), 260-264.
6. Qurbonova, X. B. (2024). Ekologik Muammolarning Mohiyati, Oqibatlar Va Hal Etish Yo ‘llari. *Tanqidiy Nazar, Tahliliy Tafakkur Va Innovatsion G ‘Oyalar*, 1(1), 455-458.
7. Qurbonova, X. B. (2024). Oliy Ta’lim Va Professional Ta’lim Muassasalarining Integratsiyallashuvi. *Tanqidiy Nazar, Tahliliy Tafakkur Va Innovatsion G ‘Oyalar*, 1(1), 230-235.
8. Xudoyberganovich, S. M., & Fattohovich, A. B. (2025). Tashkilotda Kadrlar Siyosatini Shakllantirish Va Uni Amalga Oshirish Strategiyasi. *Икро журнал*, 14(01), 3-6.
9. Шамуратов, М., & Азимов, Б. (2025). Tashkilotda Kadrlar Siyosatini Shakllantirish Va Uni Amalga Oshirish Strategiyasi. *Икро журнал*, 1(3).

10. Azimov, B. F., & Amonov, Z. M. (2025). Prospective directions for enhancing regional competitiveness through increased innovation activity. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(6), 1263-1266.

11. Tolibova, S., & Azimov, B. (2025). Competitive Strategies And Effective Ways To Utilize Them. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(4), 355-358.

12. Azimov, B. F. (2025). Methodological Approaches To Evaluating The Efficiency Of The National Innovation System. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(6), 1960-1963.

